

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

8 ЖИЛД, 2 СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 8, НОМЕР 2

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

VOLUME 8, ISSUE 2



ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES
№2 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2025-2>

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:
Сеитов Азамат Пулатович
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:
Сабирова Умида Фархадовна
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD:

22.00.01–Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Бекмурад Мансур Бобомурадovich
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Каланов Комил Куллахматович
кандидат социологических наук, профессор (Узбекистан)
Убайдуллаева Раиса Турсуновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Негматова Шахзода Шухратовна
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Шайылдаева Асель Кокоевна
кандидат социологических наук (Кыргызстан)

Исмаилов Алишер Агзамович
доктор экономических наук, (Узбекистан)
Щепилова Галина Германовна
доктор философских наук, профессор (Россия)
Рожанский Михаил Яковлевич
кандидат философских наук (Россия)
Маматов Нормурат
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Бурнашев Рустам Ренатович
кандидат философских наук, профессор (Казахстан)

22.00.02–Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Умаров Абсалом Адилевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Холбеков Абдугани Жуманазарович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Шайхисламов Рафаэль Бадретдинович
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Акулич Мария Михайловна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

Антонио Алонсо Марсос
доктор политических наук, профессор (Испания)
Фадеева Любовь Александровна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Виктор Агаджаньян
доктор философии по социологическим наукам,
профессор (США)
Абдулазизов Абдулвохид Хабибуллович
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

22.00.03–Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Аликариев Нуритдин Сапаркариевич
доктор экономических наук, профессор (Узбекистан)
Матибаев Тасполат Балтабаевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Николов Стефан
доктор философии по социологическим наукам, (Болгария)

Мирзахмедов Абдирашид Мамасидикович
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Ли Ци
доктор исторических наук, профессор (Китай)
Сухомлинова Марина Валерьяновна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

www.tadqiqot.uz решают задачи, предусмотренные Стратегией Узбекистана 2030, направленные на развитие науки за счет внедрения достижений научных исследований ученых и служащих их признанию в международном научном сообществе. Так, каждой статье, опубликованной в журнале, присваивается номер DOI (Crossref). Журналы включены в международные индексные базы данных. Входит в список журналов ВАК Узбекистана.

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Пармонов Фарход Ярашевич

доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Жусубалиев Абдикайым Рысбаевич
кандидат социологических наук, доцент (Кыргызстан)
Алимухамедова Нодира Ядгаровна
доктор философии по философским наукам (Узбекистан)

Камалова Хатира Сабыровна

кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Тагиева Гулсум Гафуровна
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)
Ахмедова Феруза Медетовна
доктор философии по социологическим наукам (PhD)
(Узбекистан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Аликариева Аълохон Нуриддиновна

доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Зайтов Элёр Холмаматович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Уразалиева Гулшода Бекпұлатовна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

Мирзахмедов Хуршид Абдирашидович

доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Қаюмов Қахрамон Нозимжонович
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Сеитова Зухрагон Пиржановна

доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Махкамов Қодиржон Одилжонович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Доспанова Дилара Уракбаевна
кандидат филологических наук, доцент (Узбекистан)

Каримов Бобир Шаропович

доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Якубов Ильдар Харрасович
кандидат политических наук, доцент (Узбекистан)
Абдухалилов Абдулло Абдухамитович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

1. Сеитов Азамат СОЦИОЛОГИЯ И ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ: УГРОЗА ИЛИ ВОЗМОЖНОСТЬ.....5	5
2. Kirsanova N.P., Geger A.E., Gonashvili A.S. YOUTH OF NON-GOVERNMENTAL UNIVERSITIES OF ST. PETERSBURG: A SOCIAL PORTRAIT.....12	12
3. Латипова Нодира, Кара Шохсанам НАСИЛИЕ КАК СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЙ ФЕНОМЕН СОВРЕМЕННОСТИ.20	20
4. Сабирова Умида РОЛЬ И ПЕРСПЕКТИВЫ СИСТЕМЫ СОЦИАЛЬНОЙ ПОДДЕРЖКИ В СОВРЕМЕННОМ ОБЩЕСТВЕ.....29	29
5. Якубов Ильдар ПОНЯТИЯ СВОБОДЫ И ВРЕМЕНИ: СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ.....34	34
6. Аликариев Нуриддин, Абдухакимова Зиёда ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА ПРОИЗВОДИТЕЛЬНОСТЬ СТУДЕНТОВ.....41	41
7. Axmedova Feruza TIBBIYOT SOTSILOGIYASI FANINING VUJUDGA KELISHI VA RIVOJLANISHI.....49	49
8. Burxanov Xusniddin MILLIY SAYTLAR TRANSFORMATSIYASI JARAYONIDA PLATFORMALARNING O‘ZIGA XOS O‘RNI.....61	61
9. Dulanbayeva Oygul MUTOLAA MADANIYATINING TARKIBI, TUZILMASI VA UNING IJTIMOIY ANAMIYATI.....69	69
10. Кан Людмила КОРЕЙСКИЙ СЛЕД В СОВРЕМЕННОЙ МУЗЫКЕ УЗБЕКИСТАНА: СОЦИОКУЛЬТУРНОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ.....76	76
11. Mamatqulova Fotimaxon DAVLAT PENSIYA TA‘MINOTI TIZIMINING JORIY HOLATI VA UNI ISLOH ETISH KONSEPSIYASI.....82	82
12. Мухаммадиева Нодира ИНВАЛИДНОСТЬ КАК ОСНОВА ИНКЛЮЗИВНОСТИ.....88	88

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Dulanbayeva Oygul,


O'zbekiston Milliy universiteti

Sotsiologiya kafedrasida katta o'qituvchisi

sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, (PhD)

e-mail: oyguldulanboyeva@mail.ru

MUTOLAA MADANIYATINING TARKIBI, TUZILMASI VA UNING IJTIMOY AHAMIYATI

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.15528098>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada mutolaa madaniyatining yaxlit bir butun tizim sifatidagi ahamiyati, uning mutolaa texnologiyasi, subyekti kabi tarkibiy elementlarining taxlili turli konsepsiyalar nuqtai nazaridan tahlil etilgan. Ayniqsa, mutolaa fenomenining oila, ta'lim va kutubxonalar kabi ijtimoiy institutlar bilan o'zaro aloqadorligining tahliliga alohida diqqat qaratilgan. Qolaversa, mutolaaning jamiyatdagi stratifikatsion jihatlar bilan bog'liqligiga ham, e'tibor berilgan. Masalan, matn o'qishning jamiyatdagi turli qatlamlar: yuqori, o'rta, quyi stratalar bilan bog'liqligi mutolaa jarayonida insonning kasbiy, hududiy, jinsiy farqlarining ahamiyati ko'rsatib o'tilgan. Bundan tashqari, mutoala jarayonidagi shaxsning psixologik holati, intellektual salohiyati, matnni qabul qilishdagi idrok xususiyatlariga ham to'xtalib o'tilgan. Shu bilan birga, mutolaaning zamonaviy jamiyat sharoitidagi shakl va mazmun o'zgarishlari ham tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: mutoala, ijtimoiy funktsiya, sotsial institut, ijtimoiy tizim, shaxs, status va rollar, faoliyat, oila instituti, mutolaa texnologiyasi, kontekst, intertekstuallik, intersub'yektivlik, matn, obyektiv reallik, ma'naviy qiyofa, kitobxon didi.

Дуланбаева Айгуль,

Старший преподаватель кафедры Социологии

Национального университета Узбекистана,

доктор философии по социологическим наукам, (PhD)

e-mail: oyguldulanboyeva@mail.ru

СОСТАВ, СТРУКТУРА И СОЦИАЛЬНОЕ ЗНАЧЕНИЕ КУЛЬТУРЫ ЧТЕНИЯ

АННОТАЦИЯ

В статье анализируется значение культуры чтения как целостной системы, ее структурных элементов, таких как технология и предмет чтения, с точки зрения различных концепций. В частности, особое внимание уделяется анализу взаимодействия феномена чтения с такими социальными институтами, как семья, образование, библиотеки. Кроме того, уделяется внимание связи чтения с аспектами стратификации в обществе. Например, значимость профессиональных, региональных и гендерных различий человека показана в процессе изучения взаимосвязи чтения с различными слоями общества: высшими, средними

и низшими. Кроме того, рассматриваются психологическое состояние личности в процессе чтения, интеллектуальный потенциал и когнитивные особенности при восприятии текста.

Ключевые слова: чтение, социальная функция, социальный институт, социальная система, личность, статус и роли, деятельность, институт семьи, технология чтения, контекст, интертекстуальность, интересубъективность, текст, объективная реальность, духовный образ, вкус читателя.

Dulanbaeva Oygul,

Senior Lecturer, Department of Sociology,

National University of Uzbekistan

Doctor of Philosophy in Sociology (PhD)

e-mail: oyguldulanbojeva@mail.ru

COMPOSITION, STRUCTURE AND SOCIAL SIGNIFICANCE OF READING CULTURE

ABSTRACT

The article analyzes the significance of reading culture as an integral system, its structural elements, such as technology and subject of reading, from the point of view of various concepts. In particular, special attention is paid to the analysis of the interaction of the phenomenon of reading with such social institutions as family, education, libraries. In addition, attention is paid to the connection of reading with aspects of stratification in society. For example, the significance of professional, regional and gender differences of a person is shown in the process of studying the relationship of reading with various layers of society: upper, middle and lower. In addition, the psychological state of the individual in the process of reading, intellectual potential and cognitive features in the perception of the text are considered.

Key words: reading, social function, social institution, social system, personality, status and roles, activities, family institution, reading technology, context, intertextuality, intersubjectivity, text, objective reality, spiritual image, reader taste.

KIRISH

XXI asr fan texnologiyalarining g'oyat tezkor rivojlanishi insonni o'rab turgan ijtimoiy reallikni tamomila o'zgartirib yubordi. Natijada, avval ustuvor bo'lgan qadriyatlar tizimi, sotsial meyorlar o'ziga xos darajada transformatsiyaga uchradi. Bu ma'noda, zamonaviy kitobxonning mutolaa madaniyati, matnga nisbatan munosabati ham butunlay o'zgacha ahamiyat kasb eta boshladi. Shu bois mutoala fenomenini ilmiy nuqtai nazardan o'rganish, uni bugungi kundagi ijtimoiy ahamiyatini tadqiq etish muhim hisoblanadi. Bunga erishish uchun esa, avvalo, mutolaa madaniyati hodisasini, uning jamiyatda amal qilishi, ijtimoiy tuzilmada tutgan o'rni, shakllanish va rivojlanish tendensiyalarini chuqurroq o'rganish zarur. Bu ma'noda, mazkur mavzuni tizimiy o'rganish, uning shakllanish yo'liga tarixan nazar solish, erishilgan yutuq va kamchiliklarni ilmiy-sotsiologik tahlil etish, ta'lim tizimi, o'qish holatlari, mutolaa jarayonlarini madaniy mezonlar bilan uyg'un holda ko'rib chiqish mutolaa madaniyatini shakllantirishda xorijiy tajribalar hamda milliy an'analardan mutanosib foydalanish imkoniyatlarini, mentalitet o'ziga xosliklarini e'tiborga olishni talab etadi.

METODOLOGIYA

Kitobxonlik ishlari tahlili, mutolaa madaniyatining shakllanish tendensiyalari, o'qish va manbalarni o'zlashtirish samaradorligi masalalari tadqiqiga bag'ishlangan N.A.Rubakin, N.M.Sikorskiy, O.S.Chubaryan, N.E.Dobrinina va boshqalarning ishlari mavjud.

Yirik kutubxonashunos olim N.A.Rubakin "Rus kitobxon ommasi haqida etyudlar", "Kitobxonlarga mustaqil ta'lim haqida maktublar", "Mustaqil ta'lim amaliyoti" kitoblarida va boshqa bir qancha asarlarida kitob mutolaasining turli jihatlarini nazariy tahlil qilib bergan va "ijtimoiy taraqqiyot darajasini, jamiyat madaniyati darajasini hech narsa mavjud tarixiy davrdagi kitobxon omma darajasichalik tavsiflay olmasligini" ko'rsatib bergan. Bundan tashqari, mazkur maqolada nazariy metodologik asos sifatida, xorijiy olimlardan: A.N.Vaneevning "Kitobxonlik didi va

extiyojlari” [1], L.Gudkovning “Ziyoliylik inqirozi va ommaviy mutolaa”[2], G.Dubinning “Ommaviy adabiyot va ommaviy mutolaa” [3] kabi tadqiqodlari, shuningdek, o‘zbek olimlari: A.A.Umarovning “Jamiyatda mutolaa madaniyatini shakllantirish va kutubxonachilik muammolari” [4], M.Rasulov va N.Roziboevalarning “Kutubxonachilik jo‘shqin kuch” kabi maqolalaridan foydalanilgan [5]. Shuningdek, maqolada qiyosiy tahlil, analiz va sintez kabi umumilmiy falsafiy metodlar ham qo‘llanilgan.

ASOSIY QISM

Mutolaa madaniyatini o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqotlarning deyarli barchasida mazkur hodisa “kitob – kitobxon – kutubxona” tizimidan iborat, deb qaralib, bu jarayon “obyekt – subyekt – obyekt” yo‘nalishlarida tadqiq etiladi. Rivojlangan G‘arb davlatlarida mutolaa sotsiologiyasi va psixologiyasi tadqiqotchilari allaqachonlar mazkur tizimga o‘tganlar. Bu jarayonda tizim yasovchi muhim belgilar: mutolaa texnologiyasi, mutolaa darajasi hamda mutolaa intensivligidir. Har qanday hodisani tahlil qilishda uni tizimlarga bo‘lib tadqiq etish samarali usul hisoblanadi. Ilmiy adabiyotlarda muayyan masalani “mavzuiy”, “muammoviy”, “yaxlit” va “tizimiy” ko‘rinishlarda o‘rganish tajribasi ma‘lum [6]. Tizimiy yondashuvda voqelikning “tizim yasovchi” eng muhim tarkibiy jihatlarini tadqiq etish orqali muammoning yechim yo‘llari aniqlab beriladi.

Mutolaa madaniyatini bir butun tizim sifatida tasavvur etish bu tizimning asosiy komponentlarini, ularning o‘zaro va tashqi muhit bilan aloqa qilish mexanizmini aniqlash, uning o‘zidan katta tizimdagi o‘rnini belgilash, oddiy tarkibiy elementining mazmuni, faoliyati, tizim taqozo qiluvchi aloqalarni ochib berishni talab qiladi. Tizimga xoslik ichki va tashqi yaxlitlikni taqozo etadi. Tizim tashkil qiluvchi biror bir element yetishmasa, butunlik hosil bo‘lmaydi. Jamlanma komponentlar, qismlar esa kutilmagan boshqa tizimlarni yuzaga keltirishi mumkin [7].

Shunga ko‘ra, mutolaa madaniyatining tarkibiy qismlariga, ya‘ni mutolaa texnologiyasi, mutolaaning ijtimoiy-psixologik jihatlarini hamda mutolaa subyektlarini tahlil qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Mutolaa texnologiyasi mutolaa jarayonining bevosita amalga oshirishini ta‘minlovchi obyektiv omillar, zaruriy vositalar, shart-sharoitlarni qamrab oladi. Bularga jamiyatning umumiy madaniyat darajasi hamda aholining mutolaaga ijobiy yoki salbiy munosabatlari darajasi, davlatning mutolaa madaniyatini shakllantirishga doir olib borayotgan siyosati, jamiyatning mazkur hodisaga yondashuvi, turli jamoat tashkilotlarining munosabati, ta‘lim muassasalari, pedagoglar va tarbiyachilar soni hamda sifati, madaniy-ma‘rifiy muassasalar, mavjud kutubxonalar va ularning ahvoli, kitob fondi va hokazolar kiradi [8].

Mutolaa texnologiyasi tizimida aholining umumiy rivojlanganlik darajasi muhim o‘rin tutadi. Umumiy madaniyatga mutolaa madaniyati munosabatlari bevosita ta‘sir ko‘rsatib, oddiydan murakkabga tomon rivojlanib boradi. Ya‘ni, aholi umumiy madaniyatining o‘sishi natijasida mutolaaga qiziqish ortishi va mutolaa madaniyati rivojlanishi mumkin. Va aksincha, umumiy madaniyati past xalqlarda mutolaa madaniyatining holati ham shunga muvofiq bo‘lishi tabiiydir.

Ma‘lumki, insoniyatning ongli tarixi moddiy va ma‘naviy madaniyatlar uyg‘unligidan iborat bo‘lib, mutolaa ana shu ikki madaniy jihatlariga bevosita ta‘sir ko‘rsatib keladi. Shuningdek, mutolaa madaniyati moddiy madaniyat namunalari (texnika, ishlab chiqarish tajribasi, ishlab chiqarish jarayonida vujudga keltirilgan moddiy qadriyatlar) bilan ham o‘zaro aloqada bo‘ladi. Masalan, mutolaa madaniyati mustaqil ta‘limni shakllantirish orqali maorif tizimi rivojiga va aholining savodxonlik darajasini oshirishga yaqindan ko‘mak bersa, maorif tizimi fuqarolarda mutolaa madaniyatini shakllantirishning asosiy ijro institutlaridan biri vazifasini bajaradi [9].

Mutolaa madaniyati murakkab, ko‘pqirrali hodisa bo‘lib, bir necha tashkiliy elementlardan iborat. Bular quyidagi yo‘nalishlarga ega: maqsadlar, ehtiyojlar, mutolaa madaniyati manbalari, mutolaa madaniyatini amalga oshirish subyektlari, mutolaa madaniyatining “subyekt – subyekt” tizimi (kutubxonachi – kitobxon, muallif – kitobxon, kitobxon – kitobxon).

Mazkur maqolada, mutolaa hodisasini bir butun tizim tarzida tashkil etuvchi bir necha obyektiv va subyektiv elementlar mavjud bo‘lib, ularning har biri jamiyatda mutolaa madaniyatining shakllanishiga hamda komil insonning tarkib topishiga o‘ziga xos hissa qo‘shadi.

Mutolaa madaniyatining asosiy ikki jihatiga: uning manbalari hamda amal qilishini yuzaga chiqaruvchi subyektlariga e'tibor qaratdik.

Shu bilan birga, mutolaa madaniyatini shakllantiruvchi institutlardan biri bu, shubhasiz, oila instituti hisoblanadi. Oila muhiti shaxsda mutolaa madaniyatini shakllantirish va rivojlanishida ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, aynan oilada bolaning mutolaaga qiziqishi shakllanadi. Mutolaa madaniyatini shakllantiruvchi ijtimoiy institutlar orasida ham, oila barcha yoshdagilarda oldingi o'rinlardan birini egallaydi [10].

Mutolaa madaniyatini shakllantirishda oilaning asosiy vazifasi quyidagilardan iborat:

1. Bolalarda mutolaaga qiziqishni uyg'otish;
2. Oila a'zolarida yoshga mos adabiyot tanlashni o'rgatish;
3. Oila kutubxonasini tashkil etish va mazkur kutubxonadagi kitoblarning boy va turli-tuman bo'lishini ta'minlab borish;
4. Bolalarda kitobdan foydalanish madaniyatini shakllantirish;
5. Bolalarda mutolaa vaqtlarini to'g'ri tashkil qilish tajribasini shakllantirish [11].
6. Mutolaa madaniyatini shakllantirish muassasalari tizimida muhim ahamiyat kasb etadiganlaridan yana biri, shubhasiz bu kutubxonalardir. Ta'lim muassasalarining kutubxonalari, asosan, foydalanuvchilarni darslik va o'quv qo'llanmalari ta'minoti bilan shug'ullansa, ommaviy kutubxonalar faoliyati aholini umumiy mutolaa manbaalari bilan ta'minlashga yo'naltiriladi. Shu o'rinda aytish lozimki, o'quv muassasalarining kutubxonalari ham, kitobxonlarni qo'shimcha adabiyotlar, ayniqsa badiiy adabiyotlar bilan ta'minlashlari maqsadga muvofiqdir. Biroq, bugungi kunda o'quv muassasalari kutubxonalarining bu boradagi faoliyatlari qoniqarli emas [12].

Kutubxonalarning mutolaa madaniyatini shakllantirishdagi vazifasi quyidagilardan iborat:

- 1) dunyo bilimlarning keng ko'lamini, xalq ma'naviy merosini aks ettiruvchi hujjatlarning universal fondini butlash, saqlash va uni jamoat foydalanishiga taqdim etish;
- 2) aholiga kutubxona va axborot xizmati, shu jumladan ma'lumotnoma-bibliografik xizmatlar ko'rsatish;
- 3) xorijiy hamda milliy adabiyotlarning bibliografik to'plamlarini yaratish, aholining bibliografik ma'lumotga bo'lgan talabini qondirish;
- 4) xorijiy davlatlar bilan bibliografik ma'lumotlar almashish hamda mamlakat aholisini xorijda nashr etilgan axborotlar bilan ta'minlash borasida xalqaro hamkorlikni keng yo'lga qo'yish;
- 5) turli konferensiyalar, ilmiy va badiiy tadbirlar orqali aholida, ayniqsa yoshlarda mutolaaga qiziqishni shakllantirish, ularni kutubxonalariga hamda mutoalaga kengroq jalb etishni tashkil qilish [13];
- 6) kutubxona o'zining barcha vositalari orqali kitobxonlarning o'qish xarakteriga va mutolaa orqali tarbiyalanishiga katta ta'sir ko'rsatadi, ya'ni kitobga va uni o'qishga qiziqish uyg'otadi, kitobxonlar talabini shakllantiradi, qiziqishni tarbiyalaydi, kitobga mehr uyg'otadi. Kutubxona mustaqil ravishda kitob tanlashni va shu kitobdan bilim olish yo'llarini, o'qigan narsalar haqida fikr yuritishni va unga tanqidiy qarashni, shu bilan birga kitoblarni tartibli ravishda o'qishni o'rgatadi. Kutubxonalar ma'naviy boylik va tafakkur durdonalarini o'z bag'riga olgan maskan sifatida katta miqdordagi kitob boyliklarini, insoniyat yaratgan ulkan madaniy merosni ming yillar osha bugungi avlodlarga yetkazib bergani bilan ham g'oyat qimmatlidir;
- 7) jamiyatda mutolaa madaniyatini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etuvchi muassasalardan biri – ommaviy kutubxonalardir. Ommaviy kutubxonaning maqsadi – “turmushni mazmunliroq tashkil etish, milliy va shaxsiy o'z-o'zini anglashni, atrof-muhitni, tevarakdagi shaxslarni tushunishni rivojlantirish, demokratik qadriyatlarni keng targ'ib qilishdan iborat”;
- 8) madaniyatga uyg'unlashish omili, ya'ni madaniy hayot va ijtimoiy faoliyat bilan hamnafas yashash, faqat o'zlashtiruvchi emas, balki yaratuvchi shaxs maqomiga ega bo'lishga intilish, san'atning barcha turlarini targ'ib qilish;
- 9) mazmunli dam olishni tashkil qilish omili, ya'ni kitobxonlar bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil qilishga erishish jarayonlariga maqsadli va ijobiy ta'sir ko'rsatish;
- 10) kutubxonalarning yana bir turi o'quv muassasalarining – maktablar, kolledj-liseylar hamda oliy o'quv yurtlarining kutubxonalaridir. Ularning vazifasi – mazkur o'quv yurti o'qituvchi

va o'quvchilarining axborot olishga bo'lgan talabini qondirishdan iborat. Bu vazifa turli ma'lumotlar berish, mutolaa bilan shug'ullanish uchun joy bilan ta'minlash, kitoblarni uyda o'qish uchun berish, keng axborot tarqatish faoliyati orqali amalga oshiriladi.

Mutolaa madaniyatiga bevosita ta'sir etuvchi tarkibiy jihatlardan yana biri ijtimoiy-ruhiy omillar tizimidir.

1. Ma'lumki, ijtimoiy munosabatlar deganda, "jamiyatda turli mavqega ega bo'lgan, uning iqtisodiy, siyosiy hamda ma'naviy hayotida turlicha ishtirok etayotgan, turmush tarzi, daromad manbalari va darajasi, shaxsiy ehtiyojlar tuzilmasi turlicha bo'lgan kishilar guruhlariga o'rtasidagi munosabatlar" [14] tushuniladi. Turli ijtimoiy uyushmalarning faol o'zaro ta'siri natijasida, ularning hamkorlikdagi faoliyati shakllanishiga olib keluvchi jarayonlar ijtimoiy munosabatlarning subyektlaridir.

2. Mazkur jarayonning murakkab ichki tuzilmalari xususida maxsus tadqiqot olib borgan N.A.Rubakin bu haqda shunday fikr bildiradi: "Mustaqil ta'lim bilan shug'ullanayotgan har bir kitobxon, har bir inson, o'ziga xos individuallikka, ya'ni faqat o'zigagina xos bo'lgan shaxsiy, ijtimoiy va tarixiy hayot sharoitlari ta'sirida doimo o'zgarib turuvchi shaxsiy xususiyatlarga, qiziqishlarga, va nihoyat, kayfiyatga ega bo'ladi. Mazkur xususiyatlarning barchasi har bir insonda o'ziga xos tarzda amalga oshuvchi mustaqil ta'limning shakllanishi va rivojlanishiga ta'sir qilishi to'g'risida gapirmasa ham bo'ladi" [15]. Mavzuga doir adabiyotlar [16] tahlili shuni ko'rsatadiki, mutolaa psixologiyasida shaxs faolligi muhim ahamiyatga ega. Chunki, boshqa ijtimoiy hodisalar kabi, mutolaaning ham mazmunini birinchi navbatda anglangan ijtimoiy faollik omili tashkil etadi [17].

Ijtimoiy faollik "insonning ongli, maqsadga yo'naltirilgan faoliyati bo'lib, uning mazmuni obyektiv ijtimoiy shart-sharoitlarni o'zgartirish hamda shaxsning ijtimoiy xususiyatlarini shakllantirishdan iborat" [18].

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, mutolaa hodisasini ijtimoiy-ruhiy munosabatlar tizimi negizida tahlil etadigan bo'lsak, uning quyidagilardan iborat ekanligini ko'rishimiz mumkin:

1) Mutolaa subyektlarining atrof-muhitga munosabati va atrof-dagilarning unga ta'siri. Masalan, bozor iqtisodiyoti sharoitida yoshlarda pragmatizm ruhi shakllanib, yuqorida aytganimizdek, ularda asosan bugungi kun ehtiyojlariga tez javob beruvchi "foydali" bilimlarga ega bo'lishga intilish yaqqol namoyon bo'lmoqda. Katta yoshlilar esa, muammolar yechimini an'anaviy tarzda milliy qadriyatlardan izlamoqda va ularda milliy hamda an'anaviy qadriyatlarga intilish birmuncha kuchayganligi sezilmoqda;

2) Mutolaa subyektlarining o'zaro munosabatlari. Bir kitobxonning ikkinchi kitobxon bilan munosabatlari, kitobxonning kutubxonachi yoki o'qituvchi bilan munosabatlari mutolaa madaniyatini tarkib toptirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, tadqiqotlarning ko'rsatishicha, yosh kitobxonlar o'qigan kitoblari haqida asosan tengdosh do'stlari, yoki oila a'zolari bilan, ayrimlari esa o'qituvchilari yoki kutubxonachi bilan fikr almashadi. Kitobxonning o'z-o'ziga bo'lgan munosabati. Uning tarkib yasovchi xususiyatlari: ijtimoiy mo'ljal, rejalilik, so'z va ish birligi, maqsadga izchillik bilan yondashuv, iroda, mas'uliyat, qat'iyat, o'z-o'zini muntazam takomillashtirib borish kabi xususiyatlarni o'z ichiga oladi.

Har qanday ijtimoiy hodisa kabi, mutolaa madaniyatining ham muhim tarkibiy qismi bu mutoala subyektidir. To XX asrgacha bo'lgan, mutolaa madaniyatiga bag'ishlangan tadqiqotlarning aksariyati asosan mutolaa obyektlariga, xususan kutubxonalar yoki kitoblar muammolariga qaratilgan edi. Biroq, jamiyat taraqqiyotining pirovard natijasi inson intellekti, holati, ma'naviy qiyofasida namoyon bo'ladi. Shu boisdan rivojlangan davlatlar ilm-fanida inson omili an'anaviy tarzda bosh omil hisoblanadi [19].

Mutolaa subyekti kitobxonning intellektual hamda ruhiy-fiziologik qiyofasi belgilaridan iborat. Mutolaa subyekting intellektual darajasi uning qanday mazmundagi mutolaa obyektlarini, ya'ni kitoblar, ommaviy axborot vositalari, audiovizual manbalar, internet yo'nalishlaridagi mavzu ko'lamlarini belgilashini ifodalaydi. Kitobxonning ruhiy-fiziologik jihatlariga esa, uning idroki, qobiliyati, irodasi, xotira quvvati, mas'uliyati, jismoniy sog'ligi, intizomliligi, rejaviy yondashuvi va shu kabilar kiradi.

Mutolaa subyekting faollashuvi mutoala madaniyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Mutolaa subyekti jamiyatda mutolaa madaniyatining shakllanishi yoki rivojlanishini belgilovchi asosiy omilligi tufayli ham, mutolaa madaniyatining tarkibidagi boshqa tizimlar: mutoala obyekti va mutolaa munosabatlaridan ahamiyatliroqdir.

Mutolaa tizimida kitobxonning ongli va maqsadli faoliyati markaziy mavqega ega bo'lib, u quyidagi jihatlarda namoyon bo'ladi:

Birinchi, faqat amaldagi empirik vositalar, sotsiologik tadqiqot usullari orqali kitobxonlik faoliyatini chuqur va har tomonlama ilmiy tahlil qilish mumkin, chunki kitobxonlik faoliyatini tadqiq qilish, kitobxon fe'l-atvori, ongi yoki shaxsini aniqlashdan ko'ra osonroqdir.

Mavjud kutubxona bibliografik tadqiqotlar natijalariga ko'ra, asosan, talablar varaqasi tahlil qilinadi hamda mavzular bo'yicha o'qilgan kitoblar, adabiyotlar turlari va boshqalar orqali kitobxonning talab va qiziqishlari ijtimoiy-demografik ko'rsatkichlarga bog'liq holda aniqlanadi va o'rganiladi. Shu bilan bir vaqtda, kitobxon tafakkuridagi talablar va qiziqishlarga xos bo'lgan ijtimoiy-ruhiy mexanizmlar shakllanishining ko'pchilik tomonidan e'tirof etilgan mezonlari mavjud emas. Kitobxonlik faoliyatini mutolaa jarayonlarida ochib berish, kitobxon psixologiyasi, kitobxon shaxsi, kitobxonlarning o'zaro muloqoti va kamoloti jihatlari ham ma'lum darajada o'rganish imkonini beradi [20].

Ikkinchi, kitobxonlik faoliyati tushunchasiga alohida urg'u berishimizning boisi shundaki, falsafiy ma'noda qaralganda har qanday kategoriya, boshqa kategoriyalar bilan o'zaro hamkorlikda va bog'liqlikda tadqiq etiladi. Bundan tashqari psixologik ta'limda shaxs tafakkurining birligi va faoliyati, kitobxonlik faoliyatini kitobxon shaxsi va uning tafakkuri bilan o'zaro hamkorlikda va o'zaro kelishilgan holda ko'rib chiqishga imkoniyat yaratadi. Shuning bilan birga "kitobxon psixologiyasi", "kitobxon shaxsi" va "kitobxonlik faoliyati" kategoriyalarini bir-biridan ajratmagan holda, ularni birgalikda ko'rib chiqish va o'rganishda, kitobxonlik faoliyatiga ko'proq e'tibor berishni talab qiladi. Biroq, "faoliyat" bir vaqtning o'zida tafakkurning ham, shaxsning ham, faoliyat tuzilishining ham tashkiliy qismi sifatida namoyon bo'ladi. Bu holat tafakkur o'zgarishlari ham, shaxs ma'naviyati evolyutsiyasi ham aynan faoliyatda namoyon bo'lishi va shakllanishida kuzatiladi.

Shu bilan birga, ta'kidlash lozimki, mazkur tizim yasovchi jihatlarning har bir elementi o'zaro mutanosib uyg'unlikda amal qilishi katta ahamiyatga egadir. Ta'kidlash joizki, mazkur tizim yasovchi elementlarning birortasida uyg'unlik tamoyili buzilgudek bo'lsa, bu mutolaa madaniyati tizimining umumiy holatiga bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatadi.

XULOSA

Yuqorida keltirilgan mulohazalarni umumlashtirib quyidagi xulosalarni bildirish mumkin:

1. Jamiyatning bozor munosabatlariga o'tish davrida muayyan iqtisodiy muammolarning hal etilishi bilan bog'liq masalalar mutolaa madaniyatini shakllantirish ishlarini yangi sharoit talablari darajasida tashkil etishni ifodalamoqda.

2. Mutolaa madaniyatini shakllantirishda aholi qatlamlariga differensial yondashish lozim. Chunki, katta yoshdagi avlodning ijtimoiy-ma'rifiy mo'ljallarida milliylikni anglash, takomillashtirish, yosh avlodga voris sifatida qoldirish kuchli bo'lsa, yoshlarda zamonaviy yechimlar, jo'shqin ritmlarga boy xorijiy madaniyatga intilish kuchli.

3. Mutolaa manbalaridan foydalanishda jinsiy farqlanishlar ham mavjud. Ayollarni ko'proq sarguzasht hamda oilaviy majoralar, sevgi-muhabbatga bag'ishlangan adabiyotlar qiziqтира, erkaklarni esa, detektiv, fantastik hamda tarixiy adabiyotlarga an'anaviy qiziqishi ustuvor.

4. Hozirda kitobxonlarda kitoblardan ko'ra, ijtimoiy tarmoqlardagi ma'lumotlarni o'qishni afzal ko'ruvchilar sonining oshishi, detektiv, dahshat, sentimental adabiyotlarga qiziqishning ortishi kuzatilmoqda.

5. Mutolaa madaniyatini shakllantirishda oila, ta'lim tizimi va kutubxonalar, davlatning mutolaa madaniyatini qo'llab-quvvatlovchi siyosati muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar/ Литература/ References:

1. Ванеев А.Н. Проблемы философии библиотеки Ванеев А.Н. //Книга: Исследования и материалы. – М., 2000. – С.69-79.
2. Гудков Л. Кризис интеллигенции и массовое чтение //Библиотека. – 2012. - №11. – С.4-7.
3. Дубин В.Б. Словесность классическая и массовая: Литература как идеология и литература как цивилизация ГБ. Дубин //Что мы читаем? Какие мы? – СПб., 2018. Вып.3. – С.8-27.
4. Краткий словарь по социологии /Под общ. ред. Д.М.Гвишиани, Н.И.Лапна. – Политиздат, 1989. – С.222.
5. Куно К. Молодежь и чтение во Франции сегодня// Куно К. Что мы читаем? Какие мы? – СПб., 2003. Вып.3. – С.90-96.
6. Линдквист М.Г. Формирование библиотечных фондов в электронной среде // «Библиотеки и современное общество». Матер. межд-ной науч. конф., посв. 200-летию основания РНБ. – СПб., 2003. – С.104.
7. Rasulov M., Ro'ziboeva N. Kutubxonachilik – jo'shqin kuch // Iqtisod va hisobot. – 2012. – № 4. – В. 78-79.
8. Рашковский Е. Книжная культура в эпоху постмодерна: из записок российского книжника / Е.Рашковский Общество и книга: от Гутенберга до Интернета. – М., 2017. – С.164-168.
9. Umarov A. Jamiyatda mutolaa madaniyatini shakllantirish va kutubxonachilik muammolari // «Fan, ta'lim madaniyat va biznes sohalarida internet va kutubxona-axborot resurslaridan foydalanish» mavzuidagi xalqaro konferensiya materiallari. – Toshkent – Samarqand, 2011. – В.4-10.
10. Умаров А.А. Библиотеки современного Узбекистана // Вестник Библиотечной Ассамблеи Евразии, 2003. №3. – С.50-54.
11. Umarov A.A. Ijtimoiy-madaniy taraqqiyotni ta'minlash va komil inson shaxsini shakllantirishda mutolaaning roli. Sotsiologiya fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertasiya. – Toshkent, 2005. – В.8.
12. Umarov A.A. Ijtimoiy-madaniy taraqqiyotni ta'minlash va komil inson shaxsini shakllantirishda mutolaaning roli. Sotsiologiya fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertasiya. – Toshkent 2005. – В.103.
13. Самохина М.М. Кто и что сегодня читает и зачем им это нужно/ М.М.Самохина //Новое лит. Обозрение, 2001.-№ 5(51). – С. 327-340.
14. Самсонов С.И. Книжная сфера российской культуры // Читающая Россия: мифы и реальность. Сб. ст. по пробл. чтения. – М.: Либерия, 1997. – С.11-17.
15. Сикорский Н.М. Книга и наука о книге // Книга. Исследования и материалы. – Сб № 11. – М., 1965.
16. Торшилов Е. Чтение или компьютер // Искусство в shk. – 1998. – № 1. – С.19–22.
17. Умаров А.А. Формирование информационных ресурсов Республики Узбекистан и межбиблиотечная кооперация//Библиотеки и ассоциации в меняющемся мире: новые технологии и новые формы сотрудничества: Труды 7-ой международной конференции «КРЫМ-2000», Том 1. – С.66-68.
18. Умаров А.А. Пути развития Государственной библиотеки Узбекистана имени Алишера Навои // «Вестник БАЕ» (Научно-практический журнал), 2000. №3. – С.54-58.
19. Усенков Л. Книга XXI века /Л.Усенков // Наука и жизнь, 2000.-№ 8. –С.76-82.
20. Фонотов Г. Сложный мир книги и чтения: Мыслители прошлого об уважении к книге /Фонотов Г. // Книгочей, 2000. – Вып.5. – С.80-87.

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

8 ЖИЛД, 2 СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 8, НОМЕР 2

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

VOLUME 8, ISSUE 2

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000